

BOTIR ERGASHEV IJODIDA MILLIY RUH VA VATANPARVARLIK MAVZUSI**Ahmedova Sarvinoz Alimardom qizi****Navoiy davlat universiteti 4-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15117440>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Botir Ergashevning milliy ruh va vatanparvarlik mavzusidagi she'rlari tahlil qilinib, shoirning o'ziga xos adabiy yondashuvi, timsollar tizimi va poetik mahorati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: milliy ruh, vatanparvarlik, o'zbek milliy qadriyatlari, vatan tuyg'usi, o'zbek poeziyasi, milliy g'urur, badiiy vositalar, vatan va ona timsoli.

**THE THEME OF NATIONAL SPIRIT AND PATRIOTISM IN THE WORK OF
BOTIR ERGASHEV****Ahmedova Sarvinoz Alimardom qizi****4th year student of Navoi State University**

Abstract: This article analyzes the poems of Botir Ergashev on the theme of national spirit and patriotism, and studies the poet's unique literary approach, system of symbols and poetic skill.

Keywords: national spirit, patriotism, Uzbek national values, sense of homeland, Uzbek poetry, national pride, artistic means, symbol of homeland and motherland.

O'zbek she'riyatida milliy ruh va vatanparvarlik doimo yetakchi mavzulardan biri bo'lib kelgan. Shoirlar xalq ruhiyatini aks ettirish, millatning qadriyatlari va tarixiy merosini ulug'lash orqali adabiyotga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Ana shunday shoirlardan biri — Botir Ergashev. Uning she'riyatida milliylik, o'zbeklik, Vatan muhabbati va xalq qadriyatlarini asrab-avaylash masalalari alohida o'rin tutadi. Botir Ergashev she'riyatida Vatan tushunchasi juda keng qamrovli. U Vatanni nafaqat ona yurti sifatida tasvirlaydi, balki uni "Ona" timsoli bilan uyg'unlashtirib, ona-Vatan konsepsiyasini ilgari suradi. Shoir ijodida milliy ruh nafaqat yurtga bo'lgan muhabbat orqali, balki milliy kiyim, qadriyatlar va ramzlar orqali ham aks etadi. Uning milliylik haqidagi esdaliklari va "Ona – Vatan", "Vatan" kabi she'rlari bu mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi. Milliylik har bir xalqning o'zligini ifodalovchi asosiy tushunchalardan biridir. Milliylik deganda nafaqat til va madaniyat, balki xalqning urf-odatlarini, kiyinish madaniyati, qadriyatlari ham tushuniladi. Botir Ergashevning shaxsiy hayotidagi bir voqea uning milliylik haqidagi qarashlarini yaqqol ifodalab beradi. U quyidagicha eslaydi: *"Shoir ukalarim Navoiylik Alisher, Ravshan Haqmurod hamda Burhon Rahmatov uchchalovlari kutilmaganda milliy kiyimlarda ishxonamga yo'qlab kelishdi. Ularning egnidagi o'zbekona matodan tikilgan zamonaviy usullar uyg'unligidagi choponlarini ko'rib, hayratda qoldim. Eng quvonarlisi ular menga ham yoshimga moslab ajoyib zamonaviy ko'rinishga ega chopon olib kelishibdi. Ochig'i, juda xursand bo'ldim..."* Bu voqea shoirning milliy qadriyatlarni qanday qadrlashini ko'rsatadi. Uningcha, milliylik – bu shunchaki eski urf-odatlarga bog'lanib qolish emas, balki milliy o'zlikni zamonaviy hayotga uyg'unlashtirib saqlab qolishdir. Shoir bu fikrni yanada mustahkamlab, milliyligimizning yashab qolishi xalqimizning o'ziga bog'liqligini ta'kidlaydi: *"Milliyligimizni shu yurtda yashovchi*

millatdoshlarimiz qadrlasagina bu qadriyat yashab qolad". Bu esa Botir Ergashev ijodida milliylik faqat shaxsiy qarash emas, balki jamiyatga taalluqli umumiy g'oya ekanligini anglatadi.

Botir Ergashevning "Vatan" she'ri uning vatanparvarlik mavzusidagi eng yorqin asarlaridan biridir. She'rda Vatan shunchaki tuproq yoki hudud sifatida emas, balki inson hayoti va taqdiri bilan chambarchas bog'langan muqaddas tushuncha sifatida tasvirlangan. She'rning har bir bandida shoirning Vatanga bo'lgan sadoqati va muhabbati aks etadi:

*Vatanim, quchog'ing oq, momiq paxta,
Ba'gringda hech qachon bosmas meni g'am.*

Bu misralarda Vatan ona timsolida tasvirlanadi. "Quchog'ing oq, momiq paxta" degan tasvir orqali O'zbekistonning dehqonchilik yurti, paxtakor yurti ekanligi aks ettiriladi. Paxta oq rangi esa samimiyat va poklik ramzi sifatida talqin qilinadi. She'rda yana shunday fikr bor: *"Vatan, deb hayqirib o'laman o'lsam"*. Bu misra shoirning fidoyiligini ifodalaydi. Vatanga muhabbat shunchalik kuchliki, u hatto o'lim oldida ham Vatan nomini tilga olishni muqaddas deb biladi.

O'zbek adabiyotida ona va Vatan tushunchalari doimo yonma-yon kelgan. "Ona – Vatan" she'rda ham Botir Ergashev bu ikki tushunchani birlashtirib, o'zining milliy ruh va vatanparvarlik haqidagi qarashlarini ifoda etadi. She'rning birinchi misralarida shoir ona va Vatan orasidagi bog'liqlikni ochib beradi:

*Vatan desam, onam kelar xayolimga,
Onamni men Vatan deya atagayman!*

Shoir Vatan va onani teng qo'yadi. Ikkalasi ham inson hayoti uchun beqiyos ahamiyatga ega. Onaning mehri va Vatan muhabbati bir-biriga o'xshash, shuning uchun ular ajralmas tushunchalar sifatida tasvirlanadi. She'r davomida shoir yana bir muhim fikrni ilgari suradi:

*Ona bo'lib, Vatan bo'lmay qolgan – bu dard,
Vatan bo'lib, onasizlik – bu ham azob.*

Bu misralar milliy ruhning eng chuqur ma'nolarini o'z ichiga oladi. Ona va Vatan birgalikda insonni shakllantiradi, ularning biridan ayrilish katta fojiga aylanishi mumkin. Botir Ergashevning milliy ruh va vatanparvarlik haqidagi she'rlari o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. U Vatanni ona timsolida tasvirlaydi, milliy qadriyatlarni hayotiy tajribalari bilan bog'laydi va milliylikni faqat an'analar emas, balki kelajak avlodga yetkazilishi lozim bo'lgan muhim meros sifatida ko'rsatadi. Uning "Vatan" va "Ona – Vatan" she'rlari shoirning bu mavzudagi eng yorqin asarlaridan bo'lib, ularda Vatanga sadoqat, xalqning sha'ni, milliy o'zlik va qadriyatlarni asrab-avaylash g'oyalari aks etgan. Shoir she'riyatidagi milliy ruh va vatanparvarlik kelajak avlod uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lib, milliy o'zligini anglashda muhim omil bo'lib qolaveradi. Botir Ergashev ijodida milliy qadriyatlarni ulug'lash alohida o'rin tutadi. U milliylikni nafaqat fikran, balki amaliy tarzda targ'ib etish kerakligini ta'kidlaydi. Shoir milliy qadriyatlar deganda, avvalo, xalqning kiyinish madaniyati, urf-odatlarini, an'analari va ma'naviyatini nazarda tutadi. Uning shaxsiy xotiralari ham shuni ko'rsatadiki, milliylikni saqlash va targ'ib qilish uchun uni hayotimizga singdirish lozim. Yuqorida keltirilgan voqeada shoir do'stlarining milliy kiyimlar kiyib kelganidan hayratda qolishi va ulardan chopon qabul qilishidan xursand bo'lishi milliy o'zlikni anglashda kiyim-kechak ham muhim ekanini bildiradi. Shoir milliy kiyimlar haqida shunday deydi: "Marhamat,

istovchilar bo'lsa, sizlar ham milliyligimizni targ'ib qiling! Chet mamlakatlarga safarga chiqayotganlar, xuddi shu ko'rinishda chiqsangiz, O'zbekistonimiz imiji uchunam zo'r bo'ladi". Bu fikrlar shoirning milliy qadriyatlarni nafaqat o'z yurti, balki xalqaro maydonda ham targ'ib qilishga intilayotganini ko'rsatadi. U milliy o'zlikni saqlash faqat o'zbek xalqi uchun emas, balki butun dunyo oldida ham o'zbek madaniyatini ko'rsatish uchun muhim ekanligini anglatadi. Botir Ergashev uchun milliy qadriyatlarning eng ulug'i – bu ona-Vatan tushunchasi. U "Ona – Vatan" she'rida onalik va vatanparvarlikni bir butun qilib tasvirlaydi. Bu she'rda qadimiy Sharq an'analariga xos bo'lgan onaga bo'lgan hurmat bilan Vatanga sadoqat birgalikda kuylanadi:

*Dunyo bizni bu o'zbek der, ko'rgan chog'da,
Ular bor, bizning ko'zu qoshimizda.
Bizni Vatan boshi uzra ko'tarmoqda,
Biz onamiz ko'taraylik boshimizda.*

Bu misralar milliy qadriyatlarni asrab-avaylashning eng muhim yo'llaridan biri – Vatanga va onaga hurmat bilan munosabatda bo'lish ekanligini ko'rsatadi. Shoir bu qadriyatlarni avloddan-avlodga o'tishi lozim bo'lgan muqaddas meros deb biladi.

Botir Ergashev she'riyatida vatanparvarlik va milliylik tushunchalari oddiy so'zlar bilan emas, balki chuqur badiiy tasvirlar, o'ziga xos timsollar va majoziy ifodalar orqali beriladi. Uning she'rlarida quyidagi badiiy vositalar ustunlik qiladi: Shoir o'z she'rlarida milliy qadriyatlarni va vatanparvarlikni obrazlar orqali ifodalashga katta e'tibor qaratadi. "Vatan" she'rida Layli-Majnun timsoli shoirning Vatanga bo'lgan muhabbatini ifodalaydi:

*Vatanli-man, men sen tufayli, Vatan,
Majnu-ning o'zim-man, sen Layli, Vatan.*

Bu yerda Vatan va inson o'rtasidagi munosabat Layli va Majnun muhabbatiga qiyoslanmoqda. Bu timsol orqali shoir Vatanga bo'lgan sadoqatni oshkora ifodalaydi.

"Vatan" she'rida shoir Vatanni "oq momiq paxta" timsoli orqali tasvirlaydi. Bu obraz O'zbekistonning paxtakor yurti ekanligini eslatib, xalqning mehnat bilan bog'liq qadriyatlariga urg'u beradi. Botir Ergashev ko'plab she'rlarida Vatanga bevosita murojaat qiladi. "Vatan" she'rida shoir uni jonli shaxs sifatida tasvirlab, unga samimiy murojaat qiladi: *"Vatan, deb hayqirib o'laman o'lsam"*. Bu misrada shoir Vatan bilan bevosita suhbatlashayotgandek tuyuladi. Bu uslub o'quvchida hissiy ta'sir uyg'otib, milliy g'urur tuyg'usini kuchaytiradi.

Shoir ba'zi misralarda qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo'yib, o'z fikrini yanada teran ochib beradi. "Ona – Vatan" she'rida:

*Ona bo'lib, Vatan bo'lmay qolgan – bu dard,
Vatan bo'lib, onasizlik – bu ham azob.*

Bu yerda "ona bo'lib, Vatan bo'lmaslik" va "Vatan bo'lib, onasizlik" tushunchalari o'zaro qarama-qarshi qo'yilgan. Bu uslub orqali shoir ona va Vatan bir butun bo'lishi kerak degan fikrni ifoda etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Botir Ergashev ijodida milliy ruh va vatanparvarlik tushunchalari chuqur va keng talqin etilgan. Uning she'riyati faqat his-tuyg'ularni ifodalash bilan cheklanmaydi, balki Vatan, ona, milliylik, qadriyatlar kabi muhim tushunchalarni badiiy jihatdan teran ochib beradi. Shoirning milliy qadriyatlarni ulug'lashi nafaqat uning shaxsiy qarashlarida, balki she'riy tasvirlarida ham o'z aksini topgan. U milliylikni saqlash va targ'ib

qilishni har bir insonning burchi deb biladi. Badiiy jihatdan tahlil qilinganda, Botir Ergashev she'riyatida timsol va ramzlar, takrorlash, murojaat san'ati, qarama-qarshilik va badiiy obrazlilik kabi vositalar yetakchi o'rin tutadi. Uning she'rlari chuqur ma'no, hayajon va milliy g'urur tuyg'usini uyg'otadigan badiiy asarlardir. Shoirning ijodi nafaqat bugungi kun o'quvchilari, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning she'rlari milliy ruhni saqlash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi bebaho adabiy meros bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2010. Toshkent.
2. Botir Ergashev "Mendirman ushal...". 2021.
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, 2008. Toshkent.
4. G'afur G'ulom "Tanlangan asarlar". G'afur G'ulom nashriyoti, 2017. Toshkent.
5. Rasulov M. "O'zbek adabiyotida milliylik va vatanparvarlik masalalari". Fan nashriyoti, 2019. Toshkent.
6. Sharipov A. "O'zbek poeziyasi va vatanparvarlik motivlari". Yangi asr avlodi nashriyoti, 2018. Toshkent.